

RETINAL VENA OKKLYUZIYASINI DAVOLASHDA KORTIKOSTEROIDLARNING ROLI

Tojimirzayeva Nilufar

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya. Retinal vena okklyuziyasi retina tomirlarining to‘silib qolishi natijasida yuzaga keladigan kasallik bo‘lib, ko‘rishning keskin pasayishi bilan xarakterlanadi. Ushbu tadqiqotda kortikosteroidlarning ushbu patologiyani davolashdagi samaradorligi va ularning alternativ terapiya sifatidagi roli baholandi.

Kalit so‘zlar: retinal vena okklyuziyasi, kortikosteroidlar, anti-VEGF, makula shishi.

Maqsad. Retinal vena okklyuziyasini davolashda kortikosteroidlarning samaradorligini klinik jihatdan baholash.

Material va metodlar. Tadqiqotda 20–70 yosh oralig‘idagi 60 nafar bemor tekshirildi. Diagnostika anamnez yig‘ish, vizometriya, fundus va OCTA tekshiruvlari yordamida amalga oshirildi. Bemorlarning bir qismida anti-VEGF terapiya qo‘llanilib, samarasi past bo‘lgan holatlarda alternativ sifatida kortikosteroidlar qo‘llanildi.

Natijalar. 23 nafar bemorda retinal vena okklyuziyasi tasdiqlandi. Anti-VEGF terapiyadan so‘ng 15 nafar bemorda kortikosteroidlar qo‘llanildi. Natijada makula shishining kamayishi va ko‘rish funksiyasining yaxshilanishi kuzatildi. Shu bilan birga, ayrim bemorlarda glaukoma va katarakta kabi nojo‘ya ta’sirlar qayd etildi.

Xulosa. Kortikosteroidlar retinal vena okklyuziyasini davolashda samarali alternativ usul hisoblanadi. Ular iqtisodiy jihatdan qulay bo‘lsa-da, qo‘llash jarayonida mumkin bo‘lgan nojo‘ya ta’sirlarni inobatga olish zarur.